

- 1.** Nosir Xisrov qayerlarga sayohat qilib, juda ko‘p geografik ma’lumotlar to‘plagan?
- A) Janubiy Osiyo, Shimoliy Afrika
 - B) Janubi-sharqiy Osiyo, Sharqiy Afrika
 - C) Janubiy Osiyo, Janubi-g‘arbiy Osiyo
 - D) Janubi-g‘arbiy Osiyo, Shimoli-sharqiy Afrika

- 2.** Geografik uzunlik qaysi gradusgacha hisoblanadi?
- A) 0° dan 90° gacha
 - B) 0° dan 45° gacha
 - C) 0° dan 180° gacha
 - D) 0° dan 360° gacha

- 3.** Gidrosferaning 1,7 foizini qanday suvlar tashkil etadi?
- A) quruqlikdagi suvlar
 - B) yerosti suvlari
 - C) daryo va ko‘l suvlari
 - D) muzliklar

4. Matnni o’qing.

Materik tabiatи va xalqlari hayotini rus olimlaridan V. V. Yunker, Y. P. Kovalevskiy, A. A. Yeliseyev, N. I. Vavilovlar tekshirdilar. N. I. Vavilov tashkil etgan ekspeditsiya 6 000 dan ortiq madaniy o’simliklardan namuna oldi.

Matndda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Afrika
- B) Shimoliy Amerika
- C) Janubiy Amerika
- D) Avstraliya

- 5.** Qaysi javobda Hind okeaniga tegishli dengiz nomi keltirilgan?
- A) Yava
 - B) Arafur
 - C) Bali
 - D) Tasman

6. Matnni o’qing.

Okeanni o’rganishda Pyotr, M. V. Lomonosov, shved olimi N. A. Nordensheldlarning tashkil etgan ekspeditsiyalari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, F. Nansen, S. O. Makarov, R. Piri, R. Amundsen va boshqalar qimmatli ma’lumotlar to‘pladilar. **Matndda berilgan ma’lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Hind
- B) Tinch
- C) Shimoliy Muz
- D) Atlantika

- 7.** Katta Zond orollaridagi daryolarning to‘yinish manbaini toping.
- A) qor va yomg‘ir suvlari
 - B) muzlik va yerosti suvlari
 - C) yomg‘ir suvlari
 - D) qor va muzlik suvlari

8. Matnni o’qing.

“Materikdagi subekvatorial o’rmonlar zonasida yomg‘irli mavsum uzoq davom etadi, qurg‘oqchil davr esa uch-to‘rt oygacha cho‘ziladi. Shu sababli o’rmonlarda bargini to‘kadigan daraxtlar soni orta boradi. Subekvatorial o’rmonlarda yiliga 2 000 — 3 000 mm yog‘in yog‘adi. Natijada doimiy yashil o’rmonlar tarkib topgan”. **Matndda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Afrika
- B) Janubiy Amerika
- C) Yevroсиyo
- D) Avstraliya

- 9. Quyidagi qaysi davlatlar hududini shimoliy qutbiy doira chizig‘i kesib o’tgan?**

- 1) Finlandiya; 2) Estoniya; 3) Islandiya; 4) Shvetsiya; 5) Daniya; 6) Norvegiya.
- A) 2, 3, 5
- B) 1, 3, 5
- C) 1, 4, 6
- D) 2, 4, 6

- 10. Shimoliy Amerika materigiga oid to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.**

- A) Aholisi juda notekis joylashgan. Aholining joylashishiga birinchi navbatda tabiiy sharoit ta’sir etgan bo‘lsa, keyingi navbatda tarixiy sabablar ta’sir ko‘rsatgan. Yevropadan ko‘chib kelgan aholi, asosan, iqlim sharoiti yaxshi yerlarda yashaydi.
- B) Aholi materikda juda notekis o’rnashgan. Aholining ko‘pchligi okeanlar sohillarida, ya’ni kelgindilar ko‘chib kelgan yerlarda yashaydi. Materikning keng ichki tekisliklarida aholi siyrak o’rnashgan.
- C) Aholining joylashishi, avvalo, materikka aholining ko‘chib kelishi tarixiga va tabiiy sharoitga bo‘gliq. Materikning janubiy yarmida aholi eng ko‘p o’rnashgan. Materikning Yevropa mamlakatlaridan dastlabki ko‘chib kelgan kishilar joylashgan sharqiy qismida aholining zichligi katta.
- D) Boshqa aholi yashaydigan materiklardan aholi zichligining kichikligi bilan ajralib turadi. Aholining ko‘p qismi materikning yashash

uchun qulay bo'lgan sharqiy, janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy chekkalarida to'plangan.

11. Badxiz va Qorabel platolari qaysi cho'lning janubi-sharqiy qismida joylashgan?

- A) Qizilqum
- B) Qoraqum
- C) Betpaqdala
- D) Mo'yinqum

12. Matnni o'qing.

"Uzunligi 68 km bo'lib, Chaqchar tog'idan boshlanadi. U qorlarning erishidan va yerosti suvlaridan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 5,90 m kub bo'lib, uning 63,9 foizi mart — iyun oylarida oqadi". **Matndagi ma'lumotlar qaysi daryoga tegishli ekanligini toping.**

- A) Oqsuv
- B) G'uzordaryo
- C) Jinnidaryo
- D) Tanxozdaryo

13. Qaysi tog' oraliq botig'ining okean sathidan balandligi sharqiy qismida 900 metr, g'arbiy qismida esa 300 metrni tashkil etadi?

- A) Nurota-Qo'yotosh
- B) Kitob-Shahrisabz
- C) Sangzor-Nurota
- D) Zarafshon

14. "Okrugning iqlimi kontinental bo'lib, qishi davomli va sovuq, yozi nisbatan quruq va issiq. Okrugning shimoliy qismi tekis bo'lganligidan qishda shimoli sharqdan Sibir antisikloni, shimaldan Arktika havosi to'siqsiz kirib keladi. Natijada, qishda harorat pasayib, yanvarning o'rtacha harorati $-4,5 - 7,6^{\circ}\text{C}$ atrofida o'zgaradi. Ba'zan sovuq havo massalarining turib qolishi natijasida eng past harorat $-32 - 33^{\circ}\text{C}$ ga tushib qoladi. Iyulning o'rtacha harorati $+27 +28^{\circ}\text{C}$. Eng yuqori harorat $+44 +46^{\circ}\text{C}$. Ushbu ta'rif mamlakatimizdag qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Qizilqum
- B) Quyi Zarafshon
- C) Quyi Amudaryo
- D) Mirzacho'l

15. Oqsuv daryosiga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Uzunligi 115 km bo'lib, Hisor tizmasidagi Botirboy va Seversev muzligidan boshlanuvchi Botirboy bilan Xonaqasuv irmog'ining qo'shilishidan vujudga keladi. U qor-muzliklarning erishidan to'yinadi.

B) Uzunligi 68 km bo'lib, Chaqchar tog'idan boshlanadi. U qorlarning erishidan va yerosti suvlaridan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 5,90 m kub bo'lib, uning 63,9 foizi mart — iyun oylarida oqadi.

- C) Uzunligi 108 km bo'lib, Hisor tizmasining janubi-g'arbiy yonbag'ridan boshlanadi. U qorlarning erishidan to'yinib, 61,6 foizi mart — iyun oylarida oqadi.
- D) Hisor tizmasining Oqota va Sherdog' tog'lari orasidagi buloqlardan boshlanib, uzunligi 57 km ni tashkil etadi. U qor va muz erishidan to'yinib, suvi mart — iyun oylarida ko'payadi.

16. Mamlakatimizdag kaliyli o'g'itlar zavodi joylashgan hududni toping.

- A) Olmaliq
- B) Dehqonobod
- C) Qo'ng'iroq
- D) Navoiy

17. "Iqtisodiy rayonni, asosan, Sirdaryo va Sangzor daryolari suv bilan ta'minlaydi.

Tekislik zamonaviy transport va irrigatsiya inshootlari bilan zich qoplangan. Rayonda aniqlangan wolfram, qo'rg'oshin, rux va oltin konlari sanoat ahamiyatiga ega. Qurilishbop shag'al, qum, gips va ohak ko'p". Ushbu ta'rif mamlakatimizdag qaysi iqtisodiy rayonga tegishli?

- A) Mirzacho'l
- B) Farg'ona
- C) Zarafshon
- D) Toshkent

18. Ko'p tarmoqli chorvachilik Yevropaning qaysi subregionidagi davlatlarda yuqori darajada rivojlangan bo'lib, xalqaro ixtisoslashuv tarmog'iga aylandi?

- 1) Shimoliy Yevropa; 2) Janubiy Yevropa; 3) Sharqiy Yevropa; 4) G'arbiy Yevropa.
- A) 1, 3
- B) 2, 4
- C) 2, 3
- D) 1, 4

19. Jahonda ko'mir qazib chiqarishda qaysi davlat birinchi o'rinni egallaydi?

- A) Hindiston
- B) AQSH
- C) Avstraliya
- D) Xitoy

20. "Afrika davlatlari orasida aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Aholining tabiiy o'sishi nisbatan yuqori darajada saqlanib kelmoqda. Aholisi yiliga deyarli 2,5 % ga,

ya'ni 2 milliondan ziyod kishiga ko'paymoqda". Ushbu ta'rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Misr
- B) Nigeriya
- C) Efiopiya
- D) Kongo Demokratik Respublikasi

21. Yevropaning qaysi subregionida biron ta ham monarxiya davlati mavjud emas?

- A) Janubiy Yevropa
- B) G'arbiy Yevropa
- C) Sharqiy Yevropa
- D) Shimoliy Yevropa

22. Matnni o'qing.

"Sanoati hozirgi vaqtida, asosan, tog'-kon tarmog'iga ixtisoslashgan. Eng muhim sanoat mahsuloti oltin hisoblanadi va u mamlakat eksportining eng katta qismini tashkil etadi. Sanoatning boshqa tarmoqlaridan yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik va ko'mir sanoatlari katta ahamiyatga ega".

Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.

- A) Eron
- B) Qozog'iston
- C) Turkiya
- D) Qirg'iziston

23. Matnni o'qing.

"Subregionning barcha davlatlarida milliy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillari bilan bog'liq holda, aholining tabiiy o'sish sur'atlari yuqori. Subregionda 1 mln dan ortiq 33 ta etnos istiqomat qilib, mintaqaga aholisining 98 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi. Asosan, induizm, islom, buddizm dinlari tarqalgan. Tekislik hududlari, yirik daryo vodiylari hamda dengizbo'yli hududlarida aholining yuqori zichlik ko'rsatkichlari qayd qilinadi". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) Sharqiy Osiyo
- B) Janubi-g'arbiy Osiyo
- C) Janubi-sharqiy Osiyo
- D) Janubiy Osiyo

24. Eron iqlimiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Iqlimi subtropik bo'lib, dengizga tutash hududlarida sernam va iliq, mamlakatning markaziylari va sharqiy hududlarida esa ancha quruq va keskin, ya'ni yozi issiq, qishi ancha sovuq. Relyefi tog'li bo'lganligi tufayli gidroenergetika resurslariga boy.
- B) Mamlakatga subtropik quruq kontinental iqlim xos. Baland tog'lardagi muzliklardan

ko'plab daryolar boshlanib, ayrimlari to'laligicha sug'orishga sarflanadi. Hududining katta qismi, ayniqsa, markazi va sharqi baland tog'lar bilan band, shimoliy va janubi-g'arbiy hududlarini tog'oldi tekisliklari egallaydi.

- C) Iqlim shimoliy-g'arbiy hududlarida nam subtropik, markaziylari va sharqiy hududlarda quruq subtropik. Tog' oralig'idagi botiqlarda iqlim keskin kontinental va o'ta quruq bo'lganligi tufayli o'simlik va hayvonot olamiga juda kambag'al bo'lgan toshloq va sho'rxok cho'llar shakllangan.
- D) Asosiy hududida issiq tropik iqlim hukmronlik qiladi, shuning uchun tekislik qismida cho'l va chalacho'l landshaftlari katta maydonlarda tarqalgan. Simoliy va g'arbiy qismlari baland tog'lar bilan band bo'lsa, sharqiy va janubiy hududlari esa tekislik relyefiga ega.

25. Antropogen landshaftlarning qaysi guruhida inson faoliyatining kuchsiz va bilvosita ta'siri izlarinigina payqash mumkin?

- A) shartli o'zgartirilmagan
- B) kuchsiz o'zgartirilgan
- C) kuchli o'zgartirilgan
- D) madaniy

26. 2018-yil qaysi mintaqada o'rtacha umr ko'rish davri erkaklarda 74 yoshga, ayollarda 80 yoshga teng bo'ldi?

- A) Avstraliya va Okeaniya
- B) Yevropa
- C) Amerika
- D) Osiyo

27. To'q tusli teri, yapaloq burun, do'rdoq lablarga ega bo'lgan irq vakillarini toping.

- A) yevropeoid
- B) mongoloid
- C) negroid
- D) avstraloid

28. Quyidagi qaysi mintaqada urbanizatsiya darajasi 82% ni tashkil etadi?

- A) Lotin Amerikasi
- B) Yevropa
- C) Shimoliy Amerika
- D) Avstraliya va Okeaniya

29. Ushbu yozuv siz xaritada Alyaska va Meksika qo'ltilchlari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4
B) 1, 3
C) 2, 3
D) 1, 4

30. Afrika materigining yozuvsiz xaritasida 2 va 4 raqamlar bilan qaysi tog'lar tasvirlangan?



- A) Tibesti, Drakon
B) Darfur, Kap
C) Axaggar, Drakon
D) Atlas, Kap

31. O'rta Osiyoning yozuvsiz xaritasida Orqaunguz Qoraqumi qaysi raqam bilan tasvirlangan?



- A) 1
B) 2
C) 3
D) 4

32. Ushbu yozuvsiz xaritada 1 va 2 raqamlar bilan qaysi tog' tizmalari tasvirlangan?



- A) Chaqchar va Tuyuntau
B) Ko'hitang va Oqtog'
C) Chaqchar va Bobotog'
D) Ko'hitang va Boysuntog'

33. Quyidagi jadvalda geografik o'lchov asboblari va ularning o'lhash obyekti qaysi qatorlarda noto'g'ri keltirilgan?

№	Geografik asboblar	O'lcash obyekti
1	Fluger	Shamol yo'nalishi
2	Reyka	Havo namligi
3	Barometr	Havo harorati
4	Anemometr	Shamol tezligi
5	Shovun	Nisbiy namlik
6	Mashtab lineykasi	Globusdagi masofa

- A) 2, 3, 5
 B) 1, 4, 6
 C) 2, 4, 6
 D) 1, 3, 5

34. Okeanlar va ularga tegishli dengizlar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

№	Okeanlar nomi	Variantlar	Dengizlar nomi
1	Tinch	a	Mouson
2	Atlantika	b	Yava
3	Hind	c	Lazarev
4	Shimoliy Muz	d	Norvegiya


- A) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a
 B) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d
 C) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a
 D) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b

35. Davlatlar va ularning pul birliklari mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

№	Davlatlar	Variantlar	Pul birligi
1	Vyetnam	a	Dong
2	Tailand	b	Ringgit
3	Malayziya	c	Bat

- A) 1-c, 2-b, 3-a
 B) 1-a, 2-c, 3-b
 C) 1-b, 2-c, 3-a
 D) 1-c, 2-a, 3-b

36. Quyidagi nuqtada tasvirlangan relyef shaklini toping.




- A) past tog'
 B) o'rtacha tog'
 C) o'rtacha baland tog'
 D) baland tog'

37. 15° g'arbiy uzunlikda turgan kuzatuvchi 60° sharqiylar uzunlikda turgan kuzatuvchidan Quyosh chiqishini necha soat keyin ko'radi?

- A) 3 soat
 B) 4 soat
 C) 5 soat
 D) 6 soat

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, havo haroratining sutkalik amplitudasini aniqlang.



- A) 14°C
 B) 13°C
 C) 15°C
 D) 12°C

39. Farg'ona okruginining ga'rbiy qismida yillik yog'in miqdori 180 mm , namlik koeffitsiyenti $0,12$ ga teng bo'lса, bug'lanuvchanlik miqdorini toping.


- A) $43,2\text{ mm}$
 B) 1000 mm
 C) 1500 mm
 D) $21,6\text{ mm}$

40. "Uzunligiga va havzasining maydoniga ko'ra Afrikaning uchinchi daryosi. Yuqori va quiy oqimlarida ostonalar va sharsharalar ko'p. O'rta oqimida Sahroyi Kabirga tutash tekis va botiq relyefli cho'l zonasidan oqib o'tadi". Ushbu fikrlar Afrika materigidagi qaysi daryoga tegishli?

- A) Niger
 B) Kongo
 C) Nil
 D) Lualaba

41. 2017-yil ma'lumotiga ko'ra ushbu diagrammaning 2-ustunidagi ko'rsatkich qaysi viloyatning yalpi ichki mahsulotiga tegishli ekanligini aniqlang (YIMga nisbatan foiz hisobida)?

9,1



- A) Farg'ona
- B) Jizzax
- C) Toshkent
- D) Surxondaryo

42. "Qit'aning zamonaviy siyosiy xaritasida 35 ta mustaqil davlat mavjud. Ular o'z hududiy kattaligi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Qit'adagi 4 ta mamlakat dunyoning 10 ta eng yirik davlatlari qatoridan joy olgan". Ushbu ta'rif qaysi qit'aga tegishli?

- A) Afrika
- B) Yevropa

- C) Osiyo
- D) Amerika

43. Oltiariq tumanining aholi zichligi 2017-yil holatiga ko'ra 335,2 kishi/km² ni, maydoni esa 0,63 ming km² ni tashkil qildi. 2017-yil holatiga ko'ra Oltiariq tumani aholisi qanchani tashkil qilgan?

- A) 203,8 ming
- B) 206,4 ming
- C) 211,1 ming
- D) 215,7 ming

44. 2020-yil holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatining aholisi 3 280,4 ming kishini, qishloq aholisi 1 870 ming kishini tashkil qildi. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini toping.

- A) 43,6 %
- B) 42,9 %
- C) 41,7 %
- D) 44,2 %

45. Sharqiy Yevropa subregioni tarkibiga kiruychi davlatlarni toping.

- A) Bolgariya, Serbiya, Makedoniya
- B) Polsha, Chexiya, Estoniya
- C) Latviya, Vengriya, Ukraina
- D) Belarus, Moldova, Litva